

FITRAT PUBLISISTIKASIDA SHO'RO HUKUMATINING XALQIMIZ TURMUSH TARZIGA KO'RSATGAN SALBIY OQIBATLARI

Maxmudova Erkinoy Ilhomjon qizi

Termiz davlat universiteti filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7327613>

Annotatsiya. Maqolada o'zbek adibi va olimi, davlat va jamoat arbobi Fbdurauf Fitratning matbuotida "Xurriyat", "Ochiq so'z", "Sho'ro", "Yoshlik" kabi gazeta va jurnallarda nashr etilgan maqolalari tahlil etilgan. Ularda aks etgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy masalalar o'z davrining asosiy voqealari bilan bog'liq holda tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: publitsistika, ijtimoiy-siyosiy masalalar, Fitrat, "Sho'ro Islomiya" tashkiloti, "Musulmonlar g'ofil bo'lmang", duma, uy egalari, maorif, madaniyat.

THE NEGATIVE EFFECTS OF THE SOVIET GOVERNMENT ON THE LIFE STYLE OF OUR PEOPLE IN FITRAT PUBLICITY

Abstract. The article analyzes the articles of the Uzbek writer and scientist, state and public figure Fbdurauf Fitrat published in newspapers and magazines such as "Khurriyat", "Ochiq so'z", "Shoro", "Yoshlik". The socio-political, cultural and educational issues reflected in them are analyzed in connection with the main events of their time.

Key words: journalism, socio-political issues, Fitrat, "Shura Islamiya" organization, "Muslims should not be careless", Duma, landlords, education, culture.

НЕГАТИВНОЕ ВЛИЯНИЕ СОВЕТСКОЙ ВЛАСТИ НА ОБРАЗ ЖИЗНИ НАШИХ НАРОДОВ В ФИТРА ППУЛИСИТИ

Аннотация. В статье анализируются статьи узбекского писателя и ученого, государственного и общественного деятеля Фбдурауфа Фитрата, опубликованные в таких газетах и журналах, как «Хуррият», «Очик соз», «Шоро», «Ёшлик». Отраженные в них социально-политические и культурно-просветительские вопросы анализируются в связи с главными событиями своего времени.

Ключевые слова: журналистика, общественно-политические вопросы, Фитрат, организация «Шура Исламия», «Мусульмане не должны быть беспечными», Дума, помещики, образование, культура.

KIRISH

Fitratning xoriydagi faoliyati manbalari. Ulug' o'zbek adibi va dramaturgi, olim va tarjimon, davlat va jamoat arbobi Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat (1886-1938) ulug' shoir va yozuvchi, dramaturg va adabiyotshunos olim, davlat va jamoat arbobi bo'lishi bilan birga bir qator maqola, lavha, xabar va nomalar muallifi bo'lgan mohir publitsist hamdir. Shuningdek, ulug' adib va olim 1917-1918- yillarda Samarqandda nashir etilgan "Hurriyat" gazetasiga muharrirlik qilgan.

Fitratning publitsistik maqola va lavhalari, xabar va nomalari 1910-yildan keyin yaratila boshlagandi. Abdurauf Fitrat Buxorodagi Mirarab madrasasini xatm qilgach, Mijmar taxallusi bilan fors tilida she'rlar yoza boshlagan. Fitratning she'rlari o'z davrida shuhrat topib, zamonasining e'tiborli ziyolilari tomonidan tazkiralarga kiritilgan. Hoji Ne'matulloh Muhtaram o'z tazkirasida Fitratni "Hoji Abdurauf" sifatida tilga oladi. Fitratning publitsistik yo'nalishdagi

asarlari dastlab Turkiyaning Istanbul shahrida taxsil olayotgan payti (1909-1913)da nashr etilgan.

Fitratning xorijsda e'lon qilingan publitsistik asarlarning yaratilish tarixi va manbalari. Fitratning xorijsda e'lon qilingan birinchi publitsistik asari Istanbulda nashr etiladigan "Ta'rufi musulimin" gazetasi bosilgan bo'lib, Buxaro amirining vaziri Nasrullohga maktub tarzida yozilgan. Ushbu maqolada Buxoro siyosiy hayotidagi kamchiliklar bayon qilinib, yangi taxtga kelgan Buxoro amiri Olimxon va uning vaziriga murojaat qilgan.

“Sho’royi islomiya”ning xatosi

1917-yil 14- martda tuzilgan “Sho’ro islomiya” tashkiloti bor yo’g’I bir yil 1918-yil bahorigacha o’z faoliyatini olib bordi,xalos. Unda Abdurashidxon Abdurashidov, Maxmudxo’ja Behbudiy,Cho’qay,Ahmad Zakiy Validiy,Isлом Sulton Shaahmedov, Toshbo’lat Norbo’tabekov kabi yana ko’plab ma’rifatchilar o’z faoliyatini olib bordi. Tashkilot juda o’z fursatda faoliyat ko’rsatgan bo’lsa ham,1917-yilning aprel oyidayoq Samarqand,Qo’qon, Namangan,Andijon,Marg’ilon,Shobeluv(Farg’ona) Marv,Turkiston,va boshqa bir qancha shaharlarda sha’balar tuzdi. Turkiston musulmonlarining uch quriltoyini o’tkazdi. “Sho’roi Islom” nomli gazeta chiqardi. Turkiston istiqboli uchun kurashga bel bog’lagan va “Sho’ro islomiya” ta’sirida faoliyat yuritgan jadidlarning biq qismi “Qadimchilar” nomi bilan atalardi. So’ngra “Qadimchilar” “Sho’royi islomiya” tarafdorlari bilan uzil-kesil aloqani uzdi va “Sho’roi Ulamo” tashkilotini tuzdilar. Uning rahbarlari:Sherali Lapin,Abdumalik hoji Nabiyiv etib tayinlandi. Bo’linishning asosiy sabablari Turkistonning milliy mustaqilligiga erishish yo’lidagi ikki xil qarama-qarshi taktik kurash masalasi edi.Qadimchilar o’lka mustaqilligini faqat, qo’zg’alon ya’ni qurolli kurash yo’li bilan qo’lga kiritishni yoqlardilar. Jadidlarning ilg’or namoyondalari esa Rasiyada yuzaga kelgan qulay inqilobiy shart-sharoitlardan foydalanib,yurt mustaqilligini siyosiy vositalar orqali hal qilish edi.

TADQIQOT NATIJASI VA MUHOKAMA

Fitratning “Sho’ro islomiyaning” xatosi maqolasida quydegilar keltirilgan edi. “Sho’ro islomiya”a’zolari saylov to’g’risida “uy egalari” nomli rus partiyasi bilan birgalikda ish olib bordi. Rus partiyasining asil maqsadi esa saylovda ko’proq ovoz toplash uchun “Sho’royi islomiya”dan foydalanish bo’ldi. Misol uchu o’n beshta golos(ovoz) olinsa, beshtasi ruslarga berilib, o’ntasini musulmonlar o’lishi kerak bo’lgan. Bundan ko’rinib turibdiki, o’n ikki ming musulmon ovozi uchun o’ttizta ovozni “uy egalari”partiyasi ikki ming rus ovozi uchun besh golosni olar edi. Mana shu hisob kitoblar yuzasidan Sho’ro jamiyatining bu ittifoqi musulmonlarning foydasiga emas, balki zarariga ishlar edi. Bu maqolada Fitrat oddiy narsalarni nima uchun musulmon jamiyati tushina olmagan uchun xayratdan lol qoladi. Soxtam,aldamchi,firibgarona siyosatga jim ko’z yumib qarab tura olish, bizning jadidlarimizning qo’lidan kelmaydi. Ilodidagi “Musilmonlar g’ofil bo’lmang!” “Johilona taassubga misol” kabi asar na’munalarida xalqni loqayd, bebarvo bo’lib qolmaslikka chaqiradi. Uning “Musulmonlar g’ofil bo’lmang!”degan hayqiriqlari bilan shahar dumasi ochilishi oldidan saylov bo’lishi haqida so’z yuritadi. Bu dumaning ko’p qismini olmoqlik uchun, musulmonlarning barchasi saylovda qatnashishi kerak edi. Xo’sh bu undovlar nima uchun? Fitrat shahar dumalariga juhudlar,ruslar,musulmonlardan vakil qo’uilishini va musulmonlar g’olib bo’lsa,kundalik turmush yaxshilanishini, yerlarning ko’p qismi bizda bo’lishini sezgan v ava shu ezgu maqsad yo’lida barchani saylovga chorlagan. U xalqimizning haqini boshqalar olishini, millatning boshi esa yana yog’iylar oyog’i ostida xo’rlanib ezilishini istamagan.

Jadidlarimiz nimalarni orzu qilganini “Johilona taassubg’a misol”maqolasida yaqqol ko’rishimiz mumkin. Jadidlar va yangi usul maktablariga qarshi bo’lganlar tomonidan bir e’lon yoziladi. Unda quyidegi jumlar bor: “Yangi chig’qan jadidlar bolalarimizning e’riqotlarini buzarlarmunlar hunarlarida hech kim bolasini o’qutmasin, o’qitsa, shu kishini o’ldurajakmiz!”. Boshqa mamlakatlarda bunday imloviy xatolar va past doirada fikrlovchi bunday e’lonlar nazardan chetda qoladi. Ammo, bizning Buxoroda bular barchani o’ziga jalb etadi. Xalqni to’g’ri yo’lga boshlovchi, millatning yorug kelajak sari yetaklovchilarga mana shunday malomat toshlari qadimchilar va din haqida past doirada fikrlovchi diniy ulamolar tomonidan otilaveradi. Xalqqa ulardan uzoq turishi kerak ekanligi,jadidlarning ongi sustlashgani ularning uydurmalariga ishonmaslik haqida qadimchilar tomonidan chuqur ta’kidlanib, jamiyat ongining tub-tubiga sindirilgan.

Bizning hozirgi kundalik hayotdagi turmush tarzimiz, shinam xonalarda, mahoratli va malakaviy o’qituvchilardan ilm olishimiz, sinfimiz parta-stol va o’quv qo’llanmalari bilan jihozlanishi ham diniy, ham dunyoviy ilmlar bir qatorda olib borilishini Sho’ro davridagi xalqimiz tushunmagan. Ular bu yangilik tarafdorlarining go’yalarini ochiq-oydin qoralab, ularni kofirga chiqarishgan va yana savotsizlik, ilmsizlik bilan mashg’ul bo’lganlar. Qadimchilar, bazi nafsiga qul bo’lgan ulamolar esa ularni turli xil yolg’on bo’xtolar bilan aldashgan. Dunyo siyosat, fan,taroqiyot maydonida yuksala boshlaganda,bizning xalqimiz madrasaning noaniq masalalari javobini qidirar,besamar baxs-munozaralar bilan umrini o’tkazar, dunyoviy bilimlar o’rgatilmay edi. Aholining ko’pchiligi savotsiz, o’qish yozishdan bexabar, tibbiyot, siyosat, kundalik maishiy hayotdan ancha ortda qolgan paytlar.. ma’naviy ozuqasi yo’q, erk va ozodlik nima ekanligini xis etmay qo’rgan bizning ona xalqimiz mana shunday loqaytlik ko’lmagida cho’kib borar edi. Bizning jadidlar esa bor kuchi bilan g’aflatda qolgan xalqni uyg’otishga bel bog’ladilar, toshdil, xayqirdilar, millar va el ozodligidan umid kutdilar. Chunki ular kelajakni ko’ra oldi, hech qachon o’tmishga taslim bo’lmadi. Yuqorida biz Fitrat timsolida barcha jadidlarni ta’kidladik. Yozuvchilarimiz milliy ma’rifatparvar,taraqqiyparvar musulmonning fanga nisbatan salbiy ,unosabatda bo’lgan vakillarini qoralar,islom dini har bir erkak va ayolning bilimiga ega bo’lishini ularning zimmasiga burch qilib qo’rganligini keng targ’ib qiladilar. Jadidlarning bir guruhi maorif-ma’rifat orqali xalq ahvolini yaxshilashga intilsa, ikkinchi guruhi davlat tizimini isloh etish,qayta qurish orqaligina xalq va yurt ahvolini o’nglash mumkin, degan siyosiy yo’llardan yurishga intildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Adabiyotlar tahlili. Fitratning Turkiyadagi faoliyatiga doir dastlab Hamid Olimjon "Fitratning adabiy ijodi haqida" maqolasida xabar bergan. Bundan keyin sho'ro davrida Fitrat haqida maqola yozishgina emas, Fitrat nomini tilgan olish man qilingan. 1980-yillardan boshlab o'zbek va xorij olimlari Fitratning publitsistik maqolalari xususida o'z ishlarida fikr bildirganlar. Prof. E.Karimovning "O'zbek adabiyotida realizm taraqqiyoti" (rus tilida) monografiyasida mavzuga oid umumiy fikr yuritgan, Fitratning she'riy, nasriy, dramaturgik asarlari qatorida uning publitsistik faoliyati haqida xabar berilgan. Prof. B.Qosimov "Maslakdoshlar" kitobida va oliy o'quv yurtlari uchun darslik tarzida yozilgan "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" kitobida Fitratning publitsistik faoliyatiga umumiy baho bergan, uning "Hurriyat" gazetasi muharriri sifatidagi faoliyatini ko'rsatish orqali Fitrat publitsistik faoliyatini yoritgan.

REFERENCES

1. Олимжон Х. Фитратнинг адабий ижоди хакида // Совет адабиёти. 1936. 5-сон. Б. 63-71; Алимджан Х. О литературном творчестве Фитрата // Литературный Узбекистан. 1936. № 5 (Olimjon H. About the literary creation of
2. Fitrat // Soviet literature. 1936. No. 5. B. P. 63-71; Alimdjan X. About the literary creation of Fitrat // Literaturnyy Uzbekistan. 1936. № 5).
3. Abdurauf Fitrat// Tanlangan asarlar// 3-jild dramalar, publitsistik maqolalari. Toshkent "ma'naviyat" 2003Abdurauf Fitrat// Selected works// Volume 3 dramas, journalistic articles. Tashkent "spirituality" 2003
4. 3. Abdurauf Fitrat// Musulmonlar g'ofil qolmang// "xuriyyat" 1917, 25-avgust 33-son.Abdurauf Fitrat// Don't be careless Muslims// "Khuriyyat" 1917, August 25, No. 33.
5. Abdurauf Fitrat//Sho'royi islomiyanning xatosi// "xuroyyat" 1917-yil 5-sentabr 36-sonAbdurauf Fitrat//The error of Islamic poetry// "Khurayat" September 5, 1917 No. 36
6. . Abdurauf Fitrat// Johilona taassubg'a misol// "ochiq so'z" gazetasi. Abdurauf Fitrat// An example of ignorant bigotry// "Achik Soz" newspaper
7. Abdurauf Fitrat//Johilona taassubg'a misol// "Sho'ro"jurnalining1917-yil 15- yanvar sonida.34-35 betlar. 6 Abdurauf Fitrat//An example of ignorant superstition// in the January 15, 1917 issue of "Shura" magazine, pages 34-35.